KUCH ADOLATDADIR Amir Temur

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN | HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA | ISSN 2181 - 483X www.andijonsadosi.uz | № 3 (533) 2025-YIL, 25-YANVAR

YOQILG'I-ENERGETIKA SOHASI ISTIQBOLLARI

Yoqilg‘i-energetika sektori har qanday mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va farovonligining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. O‘zbekistonni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biri - mamlakatning iqtisodiy barqarorligi bo'lib, u ko‘p jihatdan energetika taraqqiyoti va energetika xavfsizligiga erishishga bog‘liq.

O‘zbekiston aholisi yil sayin ortib bormoqda va bugun biz iqtisodiyoti shiddat bilan o‘sib borayotgan davlatlar qatoriga kiramiz. Demakki, elektr energiyasi va gazga bo‘lgan talab ortib boraveradi.

Yoqilg‘i-energiya resurslaridan oqilona foydalanish, foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish borasida bir qator qarorlar bo‘lib, bular yoqilg‘i-energiya sohasini samaradorligiga xizmat qiladi. Jumladan, "Yoqilg‘i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Prezident qarorini misol qilish mumkin. Qarorda qayd etilishicha, yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish holatlarini bartaraf etish va oldini olish, ulardan samarali va oqilona foydalanish orqali iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, iste'molchilar tomonidan elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspekstiyasi tashkil etilgan.

Qaror bilan O‘zenergoinspekstiya faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Ta'kidlanishicha, O‘zenergoinspekstiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida davlat organlari va tashkilotlari tomonidan qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalari o‘rnatilishini ham nazorat qiladi va belgilangan ko‘rsatkichlarning bajarilishi ta'minlanmagan taqdirda, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan choralar ko‘rish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritib boradi.

Shuningdek, Bosh prokurorning yoqilg‘i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida qonunchilikka rioya etilishi va uning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas'ul bo‘lgan o‘rinbosari lavozimi kiritildi.

Yoqilg‘i-energiya resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash va bu boradagi jarayonlarni raqamlashtirish maqsadida mavjud elektr va gaz tarmoqlari hamda qurilmalarining yuklamasi belgilangan me'yordan oshgan taqdirda, ularga yangi iste'molchilarni ulash qat'iyan taqiqlandi.

2023 yil 1 martdan boshlab nazorat tadbirlarini amalga oshirishda tafovutlarni aniqlash maqsadida O‘zenergoinspekstiyaga "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ, "Hududgazta'minot" AJ, "O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ, "O‘ztransgaz" AJlarning elektr energiyasi va tabiiy gazni nazorat qilish hamda hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlaridagi yoqilg‘i-energiya resurslari iste'moli to‘g‘risidagi ma'lumotlarni monitoring qilish imkoniyati yaratildi.

Elektr energiyasi va tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarlik bo‘yicha tuzilgan dalolatnomalarni elektron shaklda rasmiylashtirish va tegishli ma'lumotlarni "E-ma'muriy ish" tizimiga kiritish tartibi joriy etildi.

Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan elektr energiyasi hamda tabiiy gazni etkazib berish bo‘yicha shartnomalar elektr va gaz ta'minoti korxonalarining dasturiy ta'minoti yoxud "Shaffof qurilish" milliy axborot tizimi orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda tuzildi.

Ilyos OMONOV,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi boshqarma katta prokurori.

Andijon viloyatida aholini ish bilan ta'minlash, doimiy daromad manbaiga ega qilish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Buning uchun har bir mahallaning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olingan. Masalan, Baliqchi tumanidagi "Sarnovul" mahallasida sport mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan. Shu bois aholini ushbu yo‘nalishdagi faoliyatga jalb etish ijobiy samara bermoqda.



SARNOVULDA YANGI LOYIHALAR AMALGA OSHIRILMOQDA

Joriy yilda 2 ta xonadonda sport mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha kichik stexlar tashkil etildi. Natijada 25 nafar xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi. Quvonarlisi, ular tomonidan tayyorlangan mahsulotga ilk buyurtmalar qabul qilindi.

Shuningdek, mahallada sport jihoz va anjomlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxona bunyod etilmoqda. Loyiha qiymati 13 milliard so‘m bo‘lgan korxonada 200 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Ayni kunlarda qurilish montaj ishlari jadallik bilan olib borilayapti.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 30 dekabrdagi PQ-465-sonli qarori ijrosini ta'minlash bo‘yicha Baliqchi tumani fermer xo‘jaligi hududlaridagi ariq va zovurlardan samarali foydalanib o‘rdak boqish hamda dala chetlariga mevali va qurilishbop daraxt ko‘chatlarini ekish belgilangan muddatlarda amalga oshirib kelinayapti.

Ko‘chalarda uzum yetishtirish uchun ishkomlar barpo



etilmoqda. Bu ishkomlarning uzunligi salkam ikki kilometr. Ya'ni mahallaning u boshidan bu boshigacha. Va shuncha masofada Avatar navli uzum yetishtirish rejalangan. Shu bilan birga piyodalar yo‘lagi ham qurilmoqda.

D.ABDUMAJIDOVA,
"Adolat mezoni" muxbiri.



TIBBIY XIZMAT SIFATINI OSHIRISHDA XUSUSIY TIBBIY MUASSASALARINING O‘RNI QANDAY?

Mamlakatimizda aholi sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini yuksaltirish, turli xastaliklar kelib chiqishining oldini olish, tibbiyot muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan mazkur sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor tufayli tibbiyot sohasi yildan-yilga yuksalmoqda.

Mazkur jarayonda xususiy tibbiy muassasalarining ishtiroki, o‘rni va roli ham tobora ortib borayotganligini alohida e'tirof etish lozim. Bu borada Andijon viloyatida ham salmoqli ishlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyatida 837 ta xususiy tibbiyot muassasalari faoliyat yuritayotgan bo‘lib, shundan 612 tasi ambulator - qatnab davolanish sharoitida, 225 tasi stastionar - yotib davolanish sharoitida 46 turdagi ixtisosliklar bo‘yicha aholiga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil ish rejasiga muvofiq Andijon viloyatida 50 ta - 18 ta stastionar va 32 ta ambulator yangi xususiy tibbiyot muassasalari tashkil etish belgilangan bo‘lib, 2024 yil davomida viloyatda jami 111 ta xususiy tibbiyot muassasalari yangi tashkil etilib, belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligidan listenziya olindi. Shundan: 95 tasi ambulator, 16 tasi stastionar sharoitida bo‘lib, qo‘shimcha 461 ta ish o‘rinlar yaratildi, bino qurilishi, ta'mirlash ishlari, hamda yuqori texnologik tibbiy asbob-uskunalar sotib olish uchun jami 36 mlrd. 185 mln. so‘m sarflandi, 36 ta muassasalar faoliyati kengaytirildi, 95 ta muassasalar faoliyati uzaytirildi.

Bundan tashqari, keyingi yillarda viloyatdagi xususiy tibbiyot muassasalarda tibbiy turizmni rivojlantirish yo‘nalishida ham salmoqli ishlar olib borilmoqda. Tibbiy turizmni rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha xususiy tibbiyot muassasalarida 4 millionga yaqin chet el fuqarolari davolandi. Qirg‘izistan, Tojikiston Respublikalari, qo‘shni Namangan, Farg‘ona viloyatlaridan bemorlar tashrif buyurmoqdalar.

Xususiy tibbiy sektorni rivojalantirishda kadrlarni xorijda malaka oshirishi, xorijdan malakali shifokorlarni jalb etish, yangi texnologiyalarni joriy etish muhim omil bo‘lmoqda.

Xususiy sektor rivojlanish bosqichida bo‘lish bilan birga, bartaraf etilishi lozim bo‘lgan rakurslar ham mavjud.

Viloyatda aholi salomatligini tiklash, ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatini oshirishda xususiy tibbiy muassasalarining alohida o‘rni bor. Qolaversa, ularning faoliyatidan ko‘pchilik aholining ko‘ngli to‘lmoqda.

M.ORTIQOVA,
"Adolat mezoni" maxsus muxbiri.

XORIJLIK SAYYOHLAR E'TIROFI

Qay bir mamlakatga bormang, unga beriladigan birinchi baho yo'l bilan bog'liq bo'ladi. Zero, ravon yo'llar obodlik timsolidir. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, respublikamizda, xususan, Andijon viloyatida ham xalqaro talab darajasidagi qurilish ishlari amalga oshirilmoqdaki, buni hatto xorijlik sayyohlar ham e'tirof etyapti. Quvonarli jihati shundaki, bu kabi sa'y-harakatlar natijasida nafaqat markaziy avtomobil yo'llari, balki eng olis ichki ko'chalar ham ravonlashib, aholiga qulay sharoit yaratilmoqda.

- Andijon viloyatida avtomobil yo'llari tarmog'ining uzunligi 13 ming 427 kmdan iborat bo'lib, shundan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari 2 ming 544 kmni, ichki yo'llar esa 10 ming 883 kmni tashkil etadi, - deydi viloyat avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi boshlig'i Mirzohid Nurmatov. - Davlat dasturlari hamda hukumatimiz ko'rsatmalariga asosan 2024 yilda 475,9 mlrd. so'm mablag' hisobiga 1520 kmdan ortiq yo'l asfalt qilindi. Shuningdek, 11 dona ko'priklarni rekonstrukstiya qilish ishlari bajarildi. Natijada 138 ta mahallada istiqomat qiluvchi 75,3 ming nafar aholiga qulaylik yaratilib, avtomobillarning xavfsiz harakat qilishi ta'minlandi.

Bu kabi xayrli ishlarni amalga oshirishda davlat dasturlarining ahamiyati katta bo'ldi. Ularning doirasida 215,3 mlrd. so'm mablag' hisobiga salkam 560 kmdan iborat avtomobil yo'llari soz holatga keltirildi. Natijada 272 ta mahalladagi 145 ming nafar aholiga qulaylik yaratildi.

AVTOMOBIL YO'LLAR TARMOG'I:

AHOLIGA QULAY SHAROIT YARATILMOQDA



CHEKKA QISHLOQ YO'LI HAM SHAHARNIKIDAN QOLISHMAYDI

Yo'l qurilishi bilan bog'liq islohotlar aholi turmush sharoitini ham tubdan o'zgartirib yubordi. Natijada eng chekka hududlardagi mahallalar ham namunali manzillarga aylandi. Buning uchun 128,6 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 1150 kmdan iborat yo'llar asfaltlandi.

- Xonadonim shundoqqina dala bo'yida joylashgan, - deydi Andijon tumanidagi "Zavroq" MFYda istiqomat qiluvchi Asadillo Abubakirov. -Qolaversa, aholi soni kam bo'lgani uchun yo'limizda ta'mirlash ishlaridan umid ham qilmay qo'ygan edik. Buni qarangki, 2024 yilda ko'chalarimizdagi ichki yo'llar betonlanib, nafaqat aholi, balki avtomashinalar uchun ham sharoit yaratildi.

KO'PRIKLAR - MANZILLARNI BIRLASHTIRUVCHI TUGUN

Ko'priklar yo'llarni o'zaro bog'lab turuvchi tugunga o'xshaydi. U tufayli manzillargina emas, balki ko'ngillar ham tutashadi. Shu bois viloyatdagi mavjud 1 ming 72 dona ko'priklar qayta nazoratdan o'tkazilib, ularning sifat darajasi tahlil qilindi. Shu orqali ortda qolgan yil davomida 6,2 mlrd. so'm mablag' hisobiga 9 ta ko'prik ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Bu esa 392 tadan ziyod mahallalardagi 215 ming nafar aholiga qulay sharoit yaratilishiga sabab bo'ldi.

- Xo'jaobod va Jalaquduq tumanlarini o'zaro bog'lab turuvchi "Oqbo'yrasoy" kanali ustidagi ko'prik tabiiy ofat natijasida yaroqsiz holga kelib qolgan edi, - deydi Jalaquduq tumanida yashovchi Ne'matjon Abdurahmonov. - Natijada ko'zlangan manzilga yetish uchun qo'shimcha 10 kmdan ziyod yo'lni bosib o'tishimizga to'g'ri keldi. Hozirda ta'mirlash ishlari olib borilmoqda. Bundan xalqimiz minnatdor! Boisi, uzoqlarni yaqinlashtiruvchi bunday ko'priklar muhim ahamiyatga ega.

YANGI MANZILNING YANGI YO'LI

Andijon tumani adirliklarida barpo etilayotgan "Yangi Andijon" massivi mo''jazgina shaharchaga aylandi. Bu yerda aholi uchun yetarli sharoitni yaratish maqsadida 10 kmdan ziyod asosiy yo'l qurildi.

- Yo'lni jahon talablariga mos holatda tashkil etish maqsadida dastlab 50 smdan iborat shag'al yotqizilib, qotirildi, - deydi Andijon yo'llardan muntazam foydalanish davlat muassasasi xodimi Tohirjon O'roqov. - Uning ustidan sheben va shag'al aralashmasi qoplandi. Shundan so'ng 10 sm katta g'ovakli asfalt, uning ham ustidan 8 sm qalinlikdagi o'rta g'ovakli asfalt yotqizildi. Va nihoyat so'nggida 5 smdan iborat mayin g'ovakli asfalt yotqizildi. Bundan tashqari, velosiped va piyodalar yo'laklari barpo etildi. Yo'l chetlariga chiroqlar o'rnatilib, manzarali daraxtlar ekildi. Yo'l belgilari esa harakat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Ushbu yo'lning qurilishi nafaqat "Yangi Andijon"liklar, balki Andijon tumanida yashovchi Zavroq, Bo'taqora, Xortum, Xrabek, Jevachi qishloqlari aholisining ham uzog'ini yaqin qildi.

- Viloyatdagi eng yirik savdo markazi bo'lmish "Jahon bozori" savdo majmuasiga borish uchun viloyat markazi orqali harakatlanar edik, - deydi "Zavroq" MFYda yashovchi Botirjon Asronov. - "Yangi Andijon" massivida barpo etilgan yangi yo'l manzilimizni 20 kmga yaqinlashtirdi. Yo'l juda ravon, tekis ekanligi bilan bizga manzur bo'lmoqda.

Xulosa o'rnida aytish joizki, andijonliklar yo'lsozlar xizmatidan minnatdorlar! Zero, sifatli, ravon yo'l hamisha obod manzillar sari chorlaydi.

Saminjon XUSANOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi.

NOTARIUSLAR HUJJATLAR NUSXALARINING VA HUJJATLARDAN OLINGAN KO'CHIRMALARNING TO'G'RILIGINI SHAHODATLAYDIMI?

Notariuslar jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan berilgan hujjatlar ko'chirma nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlaydi.

Notarial harakatlar notarial idoralarning binolarida amalga oshiriladi.

Fuqaro kasalligi, nogironligi tufayli yoki boshqa sabablarga ko'ra notarial idoraga bora olmaydigan ayrim hollarda notarial harakatlar mazkur fuqaro turgan joyda amalga oshirilishi mumkin.

Qonunchilikda notarial harakatlar notarial idoralarning binolaridan tashqarida amalga oshiriladigan boshqa hollar ham nazarda tutilishi mumkin.

Notariuslarning, notarial harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan boshqa mansabdor shaxslarning notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

Notarial harakatni amalga oshirish chog'ida notariuslar tomonidan audio va videoyozuv vositalaridan foydalanilishi mumkin.

Notarial harakatlar haq to'langanidan so'ng zarur bo'lgan barcha hujjatlar taqdim etilgan kuni amalga oshiriladi.

Fuqarolarning shaxsi aniqlanadi. Fuqaroning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi.

Hujjatni asl nusxasi (yoki hujjat asl nusxasidan ko'chirilgan nusxaning to'g'riligi notarial tartibda shahodatlangan bo'lsa yoki hujjatning nusxasi uning asl nusxasi tayyorlangan tashkilot tomonidan berilgan bo'lsa. Hujjatning nusxasi uning asl nusxasi tayyorlangan tashkilot tomonidan berilgan bo'lsa, hujjatning nusxasi mazkur yuridik shaxsning blankasida bayon etilgan, muhr bosib tasdiqlangan va unda shu hujjatning asli mazkur tashkilotda ekanligi yozib qo'yilgan bo'lishi kerak).

Ko'chirma olinayotgan hujjatda o'zaro bog'liq bo'lmagan bir nechta alohida masalalarga oid qarorlar bo'lgan taqdirdagina ko'chirmaning to'g'riligi shahodatlanishi mumkin. Ko'chirma hujjatning muayyan masalaga doir qismining to'la matnini aks ettirishi kerak.

Notarial harakatni amalga oshirish qo'shimcha ma'lumotlarni talab qilib olish yoki hujjatlarni ekspertizaga yuborish zarur bo'lganida kechiktirilishi mumkin.

Notarial harakatlarni amalga oshirish, basharti qonunga binoan manfaatdor shaxslardan ushbu harakatlarni amalga oshirishga e'tiroz bor-yo'qligini so'rash zarur bo'lganda, kechiktirilishi mumkin. Notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish muddati bir oydan oshmasligi lozim. Notarial harakatni amalga oshirishni so'rab murojaat qilgan shaxsning talabiga ko'ra unga notarial harakatni amalga oshirishni kechiktirish haqidagi qaror beriladi.

S.BATIROV,
Izboskan tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

KO'CHMAS MULK OCHIQ SAVDODA SOTIB OLINGANLIGI HAQIDA GUVOHNOMA BERISH TARTIBI QANDAY?

Notarius ko'chmas mulk ochiq savdoda sotib olinganligi haqida to'g'risida guvohnoma beradi.

Guvohnoma qonunchilikda belgilangan muddatlarda beriladi.

Notarius tomonidan bitim notarial idora binosida yoki murojaat qiluvchilarning talabiga ko'ra sayyor tartibda rasmiylashtiriladi.

Bitim notarial idora binosidan tashqarida rasmiylashtirilgan taqdirda, hujjatning tasdiqlovchi yozuvida bitim rasmiylashtirilgan joyning manzili ko'rsatiladi va bitimni rasmiylashtirish hamda imzolash jarayoni majburiy audio va videoga qayd etiladi.

Bitimni rasmiylashtirish jarayonini audio va videoda qayd etishda notarius va notarial harakatni amalga oshirishda ishtirok etuvchi shaxslar tasvirga to'liq tushirilishi shart. Bunda notarius tomonidan qanday turdagi notarial harakat amalga oshirilayotganligi, notarial harakat mazmuni, ahamiyati notarius tomonidan ovoz chiqarib taraflarga tushuntirib berilganligi hamda hujjat matni bilan taraflar to'liq tanishganligi va ularning asl maqsadiga muvofiqligini tasdiqlagan holda imzolash hamda barmoq izlarini "Notarius" avtomatlashtirilgan axborot tizimida skaner qilish jarayoni to'liq audio va videoda qayd etilishi lozim.

"Notariat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasiga asosan O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Rasmiylashtirilgan hujjat matni fuqarolarning talabiga binoan notarius tomonidan rus tilida yoki imkon bo'lsa, boshqa maqbul tilda beriladi.

Murojaat qiluvchi bitimni rasmiylashtirish uchun notarial idoraga o'zi kelib murojaat qiladi yoki notarius xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud "E-notarius.uz" axborot portali orqali ro'yxatdan o'tadi.

Notarius Tizim orqali kelib tushgan elektron murojaatlarni ko'rib chiqishi va belgilangan muddatda murojaat qilgan shaxslarni qabul qilishi shart.

Murojaat qiluvchi elektron tarmoq orqali notarius qabuliga navbatga yozilishni, shuningdek bitim rasmiylashtirilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni jo'natgan holda tegishli bitim loyihasining oldindan tayyorlab qo'yilishini so'rab murojaat qilishi mumkin.

Murojaat qiluvchining elektron tarmoq orqali notarius qabuliga yozilish bo'yicha yo'llangan murojaatlari jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini navbatma-navbat qayd qilish elektron ro'yxatiga avtomatik tarzda qayd qilinadi.

Murojaat qiluvchining elektron tarmoq orqali bitim rasmiylashtirilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni oldindan jo'natgan holda, tegishli hujjatlarning tayyorlab qo'yilishi bo'yicha yo'llangan murojaatlari ularning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Murojaat bo'yicha bitim loyihasi notarius tomonidan belgilangan vaqtda oldindan tayyorlab qo'yiladi.

Murojaat qiluvchi notarial idoraga bevosita o'zi kelganda uni notarius yordamchisi qabul qiladi, notarius yordamchisi mavjud bo'lmaganda kotib yoki notarius stajyori, ular ham bo'lmaganda notarius qabul qiladi va uning maqsadiga aniqlik kiritadi.

Notarius bitimni rasmiylashtirishni so'rab murojaat qiluvchilarning (ularning qonuniy vakillarining, shuningdek vasiy va homiylarining) va yuridik shaxs vakillarining shaxsini aniqlaydi.

Notariuslar o'z nomiga va o'z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o'zining qarindosh-urug'lari (ota-onasi, bolalari, nabiralari, tug'ishgan aka-uka va opa-singillari), ular bilan vasiylik va homiylik tufayli bog'langan shaxslar nomiga hamda ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Notarius bitimni rasmiylashtirishni so'rab murojaat etgan jismoniy shaxsning muomala layoqatini u bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlaydi.

Notariusga murojaat etgan shaxsning ruhiy holati buzilganligi yoki aqli zaifligi oqibatida o'z xatti-harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydi yoki shu harakatlarni boshqara olmaydi deb yoxud spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishi oqibatida o'z oilasini og'ir moddiy ahvolga solib qo'yadi deb hisoblash uchun asosi bo'lsa (shubha tug'dirsa), ammo shu fuqaroning muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lmasa, u notarial harakatni amalga oshirishni kechiktiradi va sudning shu shaxsni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topganligi to'g'risidagi qarori mavjud yoki mavjud emasligini Tizim orqali tekshiradi.

Bitimni notarial tasdiqlashda notarius mulklar mulkdorga tegishliligini tekshiradi.

Bitimni tasdiqlashda mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish taqiqlanmaganligi va (yoki) xatlanmaganligi Tizim orqali tekshiriladi.

Notarial harakatlar notarius ishtirokida imzolanadi.

G.MATKARIMOVA,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

ER-XOTINNI UMUMIY MOL-MULKIDAGI ULUSHI: MULK HUQUQI TO'G'RISIDAGI GUVOHNOMA BERISH TARTIBI

Oila kodeksining 23-moddasida er va xotinning umumiy mulki to'g'risida tushuncha berilgan. Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulklari ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi. Er va xotindan biri uy-ro'zg'or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo'lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko'ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo'lmagan taqdirda ham er va xotin umumiy mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo'ladi. Er-xotindan biri vafot etgan taqdirda er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinning (erning) yozma arizasiga ko'ra meros ochilgan joydagi notarius tomonidan beriladi . Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risidagi guvohnoma marhum erdan (xotindan) keyin xotinga (erga) nikoh davomida orttirilgan umumiy mol-mulkning yarmi uchun berilishi mumkin.

Er-xotinning umumiy mol-mulkidagi ulushga bo'lgan mulk huquqi to'g'risida guvohnoma er-xotinning mavjud umumiy mulki hisoblangan mulkigagina beriladi.

Buning uchun quyidagi hujjatlar taqdim etishi kerak. Shaxsini tasdiqlovchi hujjat, nikoh haqidagi guvohnomasi. mulkka bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat va boshqa hujjatlar.

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish er va xotindan birining talabiga ko'ra, ular nikohda bo'lgan davrda ham, nikohdan ajralishgandan keyin ham, shuningdek, kreditor er va xotindan birining umumiy mol-mulkdagi ulushiga undiruvni qaratish uchun umumiy mol-mulkni bo'lish talabi bilan arz qilgan hollarda amalga oshirilishi mumkin. Er va xotinning umumiy mol-mulki er va xotin o'rtasida o'zaro kelishuv asosida bo'lib olinishi mumkin.

Er va xotinning xohishi bilan ularning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi o'zaro kelishuvi notarial tartibda tasdiqlanadi. Nizo tug'ilgan hollarda er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish, shuningdek, er va xotinning bu mol-mulkdagi ulushini aniqlash sud tartibida amalga oshiriladi.

Oilaviy munosabatlar tugatilganda sud er va xotin alohida yashagan davrda orttirgan mol-mulkni ulardan har birining shaxsiy mulki deb topishi mumkin. Voyaga yetmagan bolalar ehtiyojini qondirish uchun olingan buyumlar bo'linmaydi hamda bolalar er va xotindan qaysi biri bilan yashasa, unga kompensatsiyasiz beriladi.

Er va xotinning umumiy mol-mulki hisobidan o'rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo'yilgan omonatlar o'sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiy mol-mulkini bo'lish paytida e'tiborga olinmaydi. Er va xotinning umumiy mol-mulki ular nikohda turgan davrda bo'lingan taqdirda, er va xotin mol-mulkining bo'linmay qolgan qismi, shuningdek, er va xotin tomonidan ular nikohda turgan davrda orttirilgan mol-mulk keyinchalik ularning birgalikdagi umumiy mulkini tashkil qiladi.

Nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan uch yillik da'vo muddati qo'llaniladi. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo'lishda hamda ularning shu mol-mulkdagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o'rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, er va xotinning ulushlari teng deb hisoblanadi.

G.KIRGIZBAEV
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius.

HUJJATNING SHAHODATLANAYOTGAN NUSXASI YOKI KO‘CHIRMASI UNING ASLI BILAN SOLISHTIRILIB CHIQILADIMI?

O‘zbekiston Respublikasi "Notariat to‘g‘risida"gi Qonunga ko‘ra, notariuslar amalga oshiradigan notarial harakatlardan biri hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko‘chirmalarning to‘g‘riligini shahodatlashdan iborat.

Mazkur xizmat olishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroni notariuslar va notarial harakatlarni amalga oshiruvchi boshqa mansabdor shaxslar notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan kishilarning shaxsini aniqlaydi.

Notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan kishining shaxsi uning shaxsiga nisbatan har qanday shubhalarni istisno etadigan pasporti yoki identifikastiyalovchi ID-kartasi yoxud boshqa hujjatlariga asosan aniqlanishi kerak.

Notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroning shaxsini aniqlashda notarius tegishli axborot resurslaridan foydalanadi.

Bitimlar tasdiqlab berilayotganida ularda ishtirok etayotgan fuqarolarning muomala layoqati belgilangan tartibda aniqlanadi va yuridik shaxslarning huquq layoqati tekshiriladi. Bitim vakil tomonidan tuzilgan taqdirda uning vakolati ham tekshiriladi.

Notarial tasdiqlanadigan bitimlar, shuningdek arizalar va boshqa hujjatlar notarius ishtirokida imzolanadi. Bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlar taraflar tomonidan barmoq izlarini olish yo‘li bilan tasdiqlanishi mumkin.

Bitimlar, arizalar va boshqa hujjatlarni tasdiqlash jarayoni videokonferenstaloqa orqali amalga oshirilishi mumkin.

Agar fuqaro jismoniy nuqsoni, kasalligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko‘ra bitim, ariza yoki boshqa hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmasa, bitim, ariza yoki boshqa hujjatni uning topshirig‘iga ko‘ra uning o‘zi va notarius hozirligida boshqa fuqaro imzolashi mumkin, bunda notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmaganligi sabablari yozib qo‘yilishi lozim. Bunday hollarda notarial harakatlarni amalga oshirish chog‘ida videoyozuv vositalaridan foydalaniladi.

Notariuslar notarial harakatlarni amalga oshirish uchun qirib o‘chirilgan yoki qo‘shimchalar kiritilgan, so‘zlari ustidan chizilgan va izoh berilmagan boshqa tuzatishlari bo‘lgan hujjatlarni, shuningdek qalamda yozilgan hujjatlarni qabul qilmaydi. Agar hujjatdagi mavjud izoh berilmagan tuzatishlar yoki boshqa kamchiliklar taqdim etilgan hujjatning maqsadi uchun ahamiyatsiz bo‘lsa, notarius bunday hujjatni notarial harakatni amalga oshirish uchun qabul qilishga haqli.

Fuqaroning pasporti yoki shaxsini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarining nusxasi shahodatlantirilmaydi, xalqaro shartnomalarda shahodatlantirilishi talab qilingan hollar bundan mustasno.

Hujjatning shahodatlanayotgan nusxasi yoki ko‘chirmasi uning asli bilan solishtirilib chiqiladi.

Shahodatlantirilgan hujjatlarning nusxasi yoki ko‘chirmasi notarial idorada qoldirilmaydi.

SH.IBAYDULLAEV,
Qo‘rg‘ontepa tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.



FUQARONING FOTOSURATDA AKS ETTIRILGAN SHAXS EKANLIGINI TASDIQLASH TARTIBI

Notarius fuqaro taqdim etgan fotosuratdagi shaxs shu fuqaroning aynan o‘zi ekanligini tasdiqlaydi va uning tasdig‘i sifatida guvohnoma beradi.

Bunday notarial harakatni amalga oshirish uchun fuqaroning yozma arizasi olinadi.

Fotosurat guvohnomaning berilayotgan nusxasining yuqori chap burchagiga qo‘yilib, notariusning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Bunda muhr qisman fotosurat ustiga, qisman esa guvohnoma ustiga qo‘yilishi kerak.

Notariuslar tomonidan notarial harakatlarni amalga oshirishda audio va videoyozuv vositalaridan foydalanilishi mumkin.

Notariuslar o‘z nomiga va o‘z nomidan, xotini (eri) nomiga hamda uning nomidan, xotinining (erining) va o‘zining qarindosh-urug‘lari (ota-onasi, bolalari, nabiralari, tug‘ishgan aka-uka va opa-singillari), ular bilan vasiylik va homiylik tufayli bog‘langan shaxslar nomiga hamda ularning nomidan notarial harakatlarni amalga oshirishga haqli emas.

Notarius notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qiluvchilarning (ularning qonuniy vakillarining, shuningdek vasiy va homiylarining) va yuridik shaxs vakillarining shaxsini aniqlaydi.

Notarial harakatlarni amalga oshirishni so‘rab murojaat qiluvchi fuqarolarning shaxsi quyidagi hujjatlarga asosan aniqlanadi:

O‘zbekiston fuqarolarining shaxsi - milliy pasport;

16 yoshga to‘lmagan fuqarolarning shaxsi - tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma;

harbiy xizmatchilarning shaxsi - harbiy qismlar va harbiy muassasalar qo‘mondonligi tomonidan beriladigan shaxsiy guvohnomalar yoki harbiy biletlar;

xorijiy fuqarolarning shaxsi - ularning milliy pasporti (qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy fuqarolar tegishli ichki ishlar organlari tomonidan ro‘yxatga olinishi lozim) yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi yoxud diplomatik pasporti yoki O‘zbekiston Respublikasida akkreditastiya qilinganligini tasdiqlovchi akkreditastiya kartochkasi;

fuqaroligi bo‘lmagan shaxs uchun O‘zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasi.

Notarius notarial harakat amalga oshirishni so‘rab murojaat etgan jismoniy shaxsning muomala layoqatini u bilan shaxsiy muloqot davomida aniqlaydi.

Notariusga murojaat etgan shaxsning ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z xatti-harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydi yoki shu harakatlarni boshqara olmaydi deb yoxud spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishi oqibatida o‘z oilasini og‘ir moddiy ahvolga solib qo‘yadi deb hisoblash uchun asosi bo‘lsada (shubha tug‘dirsada), ammo shu fuqaroning muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklanganligi to‘g‘risida ma'lumotlar bo‘lmasa, u notarial harakatni amalga oshirishni kechiktiradi va sudning shu shaxsni muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topganligi to‘g‘risidagi qarori bor-yo‘qligini Tizim orqali aniqlaydi.

Agar mazkur shaxs sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishni rad etish haqida qaror chiqaradi. Notarius ushbu qarordan norozi tomonning sudga murojaat qilish huquqini tushuntirishi lozim.

Agar mazkur shaxs sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan bo‘lsa, notarius notarial harakatni amalga oshirishda muomala layoqati cheklangan shaxs homiysining roziligini talab etadi.

Notarial harakatlar notarius ishtirokida imzolanadi.

Agar fuqaro jismoniy nuqsoni, kasalligi, savodsizligi tufayli yoki qandaydir boshqa sabablarga ko‘ra bitim, ariza yoki boshqa hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmasa, bitim, ariza yoki boshqa hujjatni uning topshirig‘iga ko‘ra uning o‘zi va notarius hozirligida boshqa fuqaro imzolashi mumkin, bunda notarial harakatni amalga oshirishni so‘rab murojaat qilgan fuqaroning hujjatni o‘z qo‘li bilan imzolay olmaganligi sabablari hujjat matniga va tasdiqlovchi yozuvga yozib qo‘yilishi lozim. Bunday hollarda notarial harakatlarni amalga oshirish chog‘ida audio va videoyozuv vositalaridan foydalaniladi.

I.UZAKBAEV,
Andijon shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius.

DUAL TA'LIM QANDAY TIZIM, UNI MAMLAKATIMIZDA QO‘LLASHDAN MAQSAD NIMA?



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Nizom asosida bugun joylarda ushbu ta'lim tajribasi qo‘llanilib kelinmoqda.

Xo‘sh, aslida dual ta'lim qanday tizim? O‘zbekistonda bu tizimni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad nima? U qanday natija beradi?

"Dual" so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi.

Dual ta'lim - o‘quvchi/talabaga ta'limni o‘z yo‘nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko‘nikmalarni egallaydi.

Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o‘quvchi/talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz biriktiriladi va oylik maoshi to‘lanadi.

Bugungi kunda ushbu tizim Germaniya, Avstriya, Shveystariya va Koreya Respublikasi kabi mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishda juda katta o‘ringa ega.

Tizim mamlakatimizda qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinmoqda?

O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi qonuni 15-moddasiga muvofiq, "Dual ta'lim" ta'lim olish shakllaridan biri sifatida kiritildi. Qonunga dual ta'lim bo‘yicha alohida modda (17-modda) ham kiritilib, dual ta'limni tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi ko‘rsatib o‘tildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Bugungi kunda dual ta'limni yanada rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasini o‘rgangan holda, qonunchilik hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bo‘yicha tegishli ishlar olib borilmoqda.

Ushbu tizimni joriy etishdan ko‘zlangan maqsad nima?

Maqsad iqtisodiyotning barcha sohalarida malakali va zamonaviy kasbiy ko‘nikmalarga ega o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash hamda yoshlarning kasblar va mutaxassisliklarni egallashga bo‘lgan qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Aytib o‘tganimdek, yoshlar ta'lim olish bilan birga haqiqiy ish joyida o‘z kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Dual ta'lim shakli professional ta'lim tizimida yo‘lga qo‘yildi. Ma'lumotlarga ko‘ra, 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab, maktabgacha ta'lim, temir yo‘l va qurilish kabi sohalarda o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlash maqsadida professional ta'lim muassasalariga dual ta'lim shakli bo‘yicha 3 mingdan ortiq yoshlar o‘qishga qabul qilindi.

M. MAMATQULOV
tayyorladi.

XOVUSKON - "MIYON RUDON" SHAHRI

Qadim va boy tarixga ega O‘zbekistonda tarixiy obida, ziyoratgoh va madaniy yodgorliklar juda ko‘p.

Ular xalqimizning o‘tmishini o‘zida mujassam etgan milliy qadriyatlarimiz namunasi, xalqimizning bebaho mulki hisoblanadi. Ana shunday maskanlardan biri Paxtaobod tumanidagi "Xovuskon ota" ziyoratgohidir.



Andijon viloyatida 422 ta tarixiy va madaniy meros ob'ektlari ro‘yxatga olingan. Ulardan 221 tasi arxeologik, 74 tasi me'moriy yodgorliklar, 42 tasi monumental san'at yodgorliklari, 85 tasi diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlar hisoblanadi.

Paxtaobod tumani Uchko‘za qishlog‘ida joylashgan "Xovuskon ota" ziyoratgohi qadimiy yodgorliklardan biri sanaladi. Bu yerda qator arxeologik tepaliklar, shifobaxsh buloqlar mavjud. Mutaxassislar tarixiy-arxeologik manbalarga ko‘ra, Xovuskon tepaliklari tarixi eramizdan avvalgi ming yilliklarga borib taqalishini qayd etgan. "Miyon Rudon" (ikki daryo oralig‘i), Norin va Qoradaryo oralig‘idagi qadimiy shaharlardan biri bo‘lganligi ta'kidlanadi.

Hozirda saqlanib qolgan maydoni 7-8 gektarni tashkil etadi. 1960-1970 yillarda tepaliklarda arxeologik tadqiqot ishlari va izlanishlar olib borilgan. Eng baland tepalikdagi g‘or islomdan avval otashparastlarning muqaddas ibodatxonasi yoki yong‘indan talofat ko‘rgan ulkan qal'a inshootlaridan biri bo‘lgan deya taxmin qilinadi. Ikki daryo oralig‘idagi barcha shaharlar kabi Xovuskon tepaliklari o‘rnida bo‘lgan shahar ham o‘rta asrlarga kelib o‘zaro urushlar, tabiiy ofatlar natijasida vayronaga aylangan. Keyinchalik tepaliklar va shaharning asosiy qismi qabristonga aylangan.



Bu maskandagi mineral va mikroelementlarga boy shifobaxsh buloq suvlari inson jismini poklaydi, ko‘p dardlardan xalos etishi haqida rivoyatlar bor. Ana shu shifobaxsh buloqlar tufayli qadimiy shahar xarobalari orasida muqaddas ziyoratgoh yuzaga keldi. "Xovuskon ota" ziyoratgohi hozirda madaniy meros ob'ekti sifatida davlat muhofazasiga olingan va viloyat sayyohlik yo‘nalishiga kiritilgan.

M.MAMATQULOV,
"Adolat mezoni" muxbiri.

«Xo‘jaobod texnologiik transport boshqarmasi» АЖ акциядорлари диққатига!

"Xo‘jaobod texnologiik transport boshqarmasi" АЖ акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилиши 2025 йил 13 февраль куни, Андижон вилояти, Булоқбоши тумани, Андижон шаҳарчаси, Қатортол кўчаси 1-уй манзилдаги жамиятнинг мажлислар залида ўтказилади.

Йиғилиш соат 10:00 да бошланади. Акциядорларни рўйхатга олиш соат 9:00 да бошланади.

КУН ТАРТИБИ:

1. Жамият акциядорларининг навбатдан ташқари умумий йиғилишининг регламентини тасдиқлаш.
2. Саноқ комиссияси таркибини сайлаш.
3. Жамият бошқарув раисини сайлаш.
4. Жамият Кузатув кенгаши аъзоларини сайлаш.
5. Жамиятда фойдаланилмай турган асосий воситаларни сотиш тўғрисида.

Ҳурматли акциядорлар! Акциядорларнинг умумий йиғилишида қатнашиш учун ўзингиз билан шахсингизни тасдиқловчи ҳужжат (паспорт) билан келишингиз, вакиллар жумладан ҳуқуқий шахслар қонунчиликлар билан белгиланган тартибда расмийлаштирилган ваколатнома (ишончнома) билан, жисмоний шахслар эса нотариал тартибда тасдиқланган ишончнома билан қатнашишлари лозимлигини билдирамиз.

Акциядорлар умумий йиғилиш ўтказилиши билан боғлиқ барча ахборот (материал) ва маълумотларни жамият маъмурияти ва Кузатув кенгашидан олиши мумкин.

Манзил: Андижон вилояти, Булоқбоши тумани, Андижон шаҳарчаси, Қатортол кўчаси 1 уй.

Акциядорларнинг реестрлари акциядорларга хабар бериш учун 2025 йил 22 январь ва йиғилишда иштирок этиш учун 2025 йил 07 февраль куни ҳолатларига шакллантирилади.

Реестр ёпишга қарор қилган орган: Кузатув кенгаши.

Маълумот олиш учун тел.: +99894-276-00-33, +99891-287-15-40.

Жамиятнинг веб-сайти: www.xutt.uz, электрон почтаси: ozneftigaz@yandex.ru

Кузатув кенгаши.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳар, Х.Қодирий МФЙ, 1-тор Б.Нақшбандий кўчаси, 9-уйда яшаб 2022 йил 17 август куни вафот этган маҳрум **ХАМДАМОВ БАХТИЯР ДАМИНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Қизил Юлдуз кўчаси, 9ҒА-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.Х.Сиддиқов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2023 йил 2 август куни вафот этган марҳум **УЛЖАЕВ ФОЗИЛЖОН МАМИРОВИЧ**нинг мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Дархон МФЙ, Истеъдод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.О. Расулов нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2019 йил 23 январь куни вафот этган марҳум **САДИКОВ ГАЙРАТ ГАНИЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Тошкент кўчаси, 3-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Б.Джалолов нотариал идорасига,

Андижон шаҳар, Дўстлик МФЙ, 1-тор Раҳимбобоев кўчаси, 9-уйда яшаб, 2022 йил 11 август куни вафот этган марҳума **ТУРҒУНОВА МАХСУДАХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳуманинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси26/24- уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Т.Қосимов нотариал идорасига,

Хонобод шаҳри, А.Юлдашев кўчаси, 28-уйда яшаб, 2020 йил 11 сентябрь куни вафот этган марҳум **TASHMATOV SATTAR XXX,**

Хонобод шаҳри, Анҳор МФЙ, Тўхтагул кўчаси, 14-уйда яшаб, 2025 йил 11 январь куни вафот этган марҳума **UMARBOYEVA YORKINOY ABDILLAYEVNA**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Зулунов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2015 йил 17 июнь куни вафот этган марҳума **YULCHIYEVA MANZURA YUSUPOVNA,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2008 йил 1 июнь куни вафот этган марҳум **ИСАМИДИНОВ КОМИЛ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2003 йил 6 март куни вафот этган марҳум **БЕШБОЕВ ЮЛДАШ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2020 йил 25 апрль куни вафот этган марҳум **SOLIYEV ABDURAXIM PARPIYEVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2001 йил 5 январь куни вафот этган марҳум **ХАЙДАРОВ РАСУЛЖОН ХХХ,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 1995 йил 12 март куни вафот этган марҳум **САЛИЕВ ПАРПИВОЙ**-ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Узун кўча МФЙ, Ипакчилик кўчасидаги уйда яшаб, 2019 йил 17 август куни вафот этган марҳум **САТВОЛДИЕВ БАХОДИРЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчаси, 103 уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Д.С.Хатамова нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Амир Темур МФЙ, Жийдазор кўчасидаги уйда яшаб, 2024 йил 14 апрель куни вафот этган марҳум **ИБРАГИМОВ ФАЙЗУЛЛА ИЛХОМЖОН ЎҒЛИ**нингмерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.Ботиров нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

Марҳамат тумани, Кўтарма ҚФЙдаги уйда яшаб, 2006 йил 24 ноябрь куни вафот этган марҳума **УМАРОВА РАХИМАХОН,**

Марҳамат тумани, Қовунчи МФЙ, М.Юсуф кўчасидаги уйда яшаб, 2018 йил 14 июль куни вафот этган марҳум **БЎТАШЕВ МАХМУДЖОН МАҚСУДОВИЧ,**

Марҳамат тумани, Ойбек МФЙ, Ибн Сино кўчасидаги уйда яшаб, 2023 йил 17 январь куни вафот этган марҳум **МАМАТАЛИЕВ ХОМИТЖОН МАМАСИДИКОВ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобуршоҳ кўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Усмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод туманида яшаб, 2022 йил 9 ноябрь куни вафот этган марҳум **ҚОДИРОВ НЕМАТЖОН ТУХТАСИНОВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Муаззинбой МФЙ, Олтин йўл кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Х.А.Рахмонов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Оқшом МФЙда яшаб, 2024 йил 28 июнь куни вафот этган марҳум **МАДУМАРОВ ХУСАНБОЙ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Обод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Ортиш МФЙда яшаб, 2016 йил 30 августда вафот этган марҳума **REDJAPOVA KARIYAXON,**

Шаҳрихон тумани, Эшонқишлоқ МФЙда яшаб, 2024 йил 16 февралда вафот этган марҳум **JUMABOY TURG'UNBOYEVICH RO'ZIMATOV**-ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Сегаза МФЙда яшаб, 2024 йил 9 октябрда вафот этган марҳум **YULDOSHEV RUSTAMBEK DJURABOYEVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas'uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010 yil, 16 martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo'limida terilda va sahifalandi. «Andijon nashriyot-matbaa» MChJda orginal maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 24.01.2025 yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 24.01.2025 yil, soat 14.00 Korxona manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma №0000112. 100 nusxada bosildi.

Navbatchi M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li